

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№3**

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, mart.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukurimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikrarov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                      |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR..... | 40  |
| Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich                                                                               |     |
| SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI .....                                        | 44  |
| Boboqulov Sanjar Bahromqulovich                                                                                                      |     |
| YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI .....                                           | 49  |
| To'xtabayev Oybek Odilovich                                                                                                          |     |
| YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....                  | 56  |
| Ismailov Bobir Salomovich                                                                                                            |     |
| TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI .....                                           | 62  |
| Yangiboyev F.B.                                                                                                                      |     |
| MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....                                                          | 68  |
| Turayev Og'abek Kaxramonovich                                                                                                        |     |
| XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....                                                     | 75  |
| Yusupova Feruza Yo'ldoshevna                                                                                                         |     |
| BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....                                                           | 83  |
| Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li                                                                                                 |     |
| QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH .....                            | 89  |
| Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich                                                                                                 |     |
| ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH .....                                                          | 94  |
| Islamova Nargiza Mirzaxidovna                                                                                                        |     |
| TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI .....                                                                          | 104 |
| Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li                                                                      |     |
| O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI .....     | 111 |
| Begamov S.X.                                                                                                                         |     |
| RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....                       | 116 |
| Zakhidov Azizbek Rustamovich                                                                                                         |     |
| HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....                                     | 125 |
| Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi                                                                                                      |     |
| SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....                                                                     | 129 |
| O'runboyeva Sotima Alisher qizi                                                                                                      |     |
| GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....                                  | 134 |
| Kaydarova Sitara Suranbay qizi                                                                                                       |     |
| KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....                                                   | 139 |
| Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich                                                                                                 |     |
| YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....                                                   | 145 |
| Jamalidinova Asalxon Saliyevna                                                                                                       |     |
| 2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI .....                                     | 151 |
| Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich                                                                     |     |



|                                                                                                                                                                                    |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI:<br>AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI .....                                                       | 155 |
| Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich                                                                                                                                                |     |
| ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ:<br>ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ .....                                                                   | 163 |
| Хайдарова Ёркиной Аскар кизи                                                                                                                                                       |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING<br>FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI .....                                                    | 170 |
| Mamatova Nodira Mirzavaliyevna                                                                                                                                                     |     |
| ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ<br>МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ<br>СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ ..... | 178 |
| Срожиддинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна                                                                                                                  |     |
| МАМЛАКАТИМИЗДА QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING<br>AHAMIYATI .....                                                                                        | 186 |
| Yuldashova Nilufar Ziyabayevna                                                                                                                                                     |     |
| RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY<br>TAHLIL .....                                                                                     | 190 |
| Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich                                                                                                                                                |     |



# RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL

**Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich**

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti, DSc.

E-mail: [xulugbek1984@gmail.com](mailto:xulugbek1984@gmail.com)

ORCID: 0000-0002-3589-373X

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada iqtisodiy rivojlanish jarayonida raqobat va hamkorlik omillarining o‘zaro nisbatiga doir nazariy yondashuvlar qayta ko‘rib chiqiladi. An‘anaviy iqtisodiy qarashlarda raqobat resurslardan samarali foydalanish va bozor muvozanatini ta‘minlovchi asosiy mexanizm sifatida talqin etiladi. Biroq globalashuv, texnologik transformatsiya va institutsional murakkablashuv sharoitida barqaror iqtisodiy o‘sinhni ta‘minlashda hamkorlik institutlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Tadqiqot doirasida institutsional iqtisodiyot, kooperatsiya nazariyasi hamda davlat-xususiy sheriklik konsepsiyalari asosida hamkorlikning innovatsion faollik, transaksion xarajatlar va ijtimoiy kapitalga ta‘siri tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, qisqa muddatda raqobat samaradorlikni rag‘batlantirsa, uzoq muddatli va inklyuziv rivojlanish hamkorlik mexanizmlarining institutsional mustahkamlanishiga bog‘liqdir.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiy rivojlanish, raqobat, hamkorlik, institutsional iqtisodiyot, kooperatsiya, barqaror o‘sinh, davlat-xususiy sheriklik.

**Abstract.** This article revisits theoretical approaches to the relationship between competition and cooperation factors in the process of economic development. Traditional economic views interpret competition as the main mechanism for efficient resource use and maintaining market equilibrium. However, in the context of globalization, technological transformation, and institutional complexity, the importance of cooperation institutions in ensuring sustainable economic growth is steadily increasing.

The study analyzes the impact of cooperation on innovation activity, transaction costs, and social capital based on institutional economics, cooperation theory, and the public-private partnership concept. The results indicate that while competition stimulates efficiency in the short term, long-term and inclusive development depends on the institutional strengthening of cooperation mechanisms.

**Key words:** economic development, competition, cooperation, institutional economics, cooperation theory, sustainable growth, public-private partnership.

**Аннотация.** В данной статье пересматриваются теоретические подходы к соотношению факторов конкуренции и сотрудничества в процессе экономического развития. В традиционных экономических взглядах конкуренция рассматривается как основной механизм эффективного использования ресурсов и обеспечения рыночного равновесия. Однако в условиях глобализации, технологической трансформации и институциональной сложности роль институтов сотрудничества в обеспечении устойчивого экономического роста становится все более значимой.

В рамках исследования анализируется влияние сотрудничества на инновационную активность, транзакционные издержки и социальный капитал на основе институциональной экономики, теории кооперации и концепции государственно-частного партнерства. Результаты показывают, что в краткосрочной перспективе конкуренция стимулирует эффективность, тогда как долгосрочное и инклюзивное развитие зависит от институционального укрепления механизмов сотрудничества.

**Ключевые слова:** экономическое развитие, конкуренция, сотрудничество, институциональная экономика, кооперация, устойчивый рост, государственно-частное партнерство.





## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti nazariyasida raqobat uzoq vaqt davomida iqtisodiy o'sish va samaradorlikning asosiy drayveri sifatida talqin qilinib kelgan. Klassik va neoklassik yondashuvlarga ko'ra, erkin raqobat sharoitida resurslar optimal taqsimlanadi, narx mexanizmi bozor muvozanatini ta'minlaydi va ishlab chiqaruvchilarni innovatsion faoliyatga undaydi. Shu bois, ko'plab iqtisodiy siyosat konsepsiyalarida raqobat muhitini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Biroq global integratsiya, texnologik transformatsiya va iqtisodiy tizimlarning murakkablashuvi sharoitida faqat raqobatga tayangan model barqaror va inklyuziv rivojlanishni to'liq ta'minlay olmasligi asta-sekin yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy makonda korxonalar, hududlar va davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchayib, qiymat yaratish jarayoni ko'p subyektki hamkorlik tarmoqlari orqali amalga oshirilmoqda. Innovatsion ekotizimlar, sanoat klasterlari, texnologik platformalar hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalari aynan kooperativ mexanizmlar asosida shakllanmoqda.

Bu esa iqtisodiy rivojlanishning yangi paradigmasini – raqobat va hamkorlik uyg'unligiga asoslangan modelni – yaratishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, rivojlanish strategiyalarida hamkorlik institutlarining o'rni va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy rivojlanishda raqobat omilining ustuvorligi masalasi klassik siyosiy iqtisod maktabi vakillari tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan. A. Smit erkin bozor va "ko'rinmas qo'l" tamoyili orqali individual manfaatlar uyg'unligi sharoitida jamiyat farovonligi ortishini ta'kidlagan [1]. D. Rikardo esa qiyosiy ustunlik nazariyasi yordamida xalqaro savdoda raqobat ixtisoslashuvni chuqurlashtirib, umumiy ishlab chiqarish hajmini oshirishini ilmiy asoslagan [2]. Ushbu yondashuvlar raqobatni iqtisodiy samaradorlikning asosiy mexanizmi sifatida talqin qiladi.

Neoklassik maktab va zamonaviy strategik boshqaruv nazariyalarida ham raqobat markaziy tushuncha sifatida qaraladi. Xususan, M. Porter milliy va tarmoq darajasida raqobatbardoshlikni innovatsiyalar, samaradorlik va ishlab chiqarish omillarining rivojlanganligi bilan bog'laydi [3]. Uning "raqobat olmosi" modeli hududiy ustunlikni shakllantirishda ichki raqobatning ahamiyatini ko'rsatadi.

Biroq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiy rivojlanish jarayonida institutlar va hamkorlik mexanizmlarining roli kengroq o'rganila boshlandi. D. Nort iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligi rasmiy va norasmiy institutlar sifatiga bog'liqligini asoslab, ishonch va barqaror qoidalar tizimi transaksion xarajatlarni kamaytirishini ko'rsatgan [4]. E. Ostrom esa umumiy resurslarni boshqarish amaliyotini tahlil qilib, kooperativ boshqaruv modeli ko'plab holatlarda individualistik raqobat modeliga nisbatan samaraliroq natija berishini empirik dalillar bilan isbotlagan [5].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda "coopetition" – ya'ni raqobat va hamkorlikning uyg'unlashuvi konsepsiyasi alohida yo'nalish sifatida shakllangan. A. Brandenburger va B. Nalebuff firmalar o'zaro raqobatlashish bilan birga strategik hamkorlik qilish orqali qo'shimcha qiymat yaratishi mumkinligini ta'kidlaydi [6]. Ushbu yondashuvga ko'ra, iqtisodiy rivojlanish faqat antagonistik raqobatga emas, balki sinergetik hamkorlikka ham tayanadi.

Shuningdek, barqaror rivojlanish konsepsiyasiga oid tadqiqotlarda davlat, biznes va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi sheriklik mexanizmlari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik maqsadlarni uyg'unlashtirish vositasi sifatida talqin qilinadi [7]. Davlat-xususiy sheriklik modeli infratuzilma va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda resurslarni integratsiyalash orqali uzoq muddatli o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, dastlabki nazariyalarda raqobat rivojlanishning asosiy drayveri sifatida qaralgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda hamkorlik institutlari va kooperatsiya mexanizmlari barqaror va inklyuziv o'sishning muhim sharti sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa iqtisodiy rivojlanish paradigmasining evolyutsion transformatsiyasini aks ettiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqobat va hamkorlik omillarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri nazariy va qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Metodologik jihatdan tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Klassik raqobat nazariyalari va zamonaviy institutsional hamda kooperatsiya konsepsiyalari o'zaro solishtirilib, ularning barqaror o'sishga ta'siri baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqobat qisqa muddatli samaradorlikni ta'minlasa, hamkorlik uzoq muddatli va inklyuziv rivojlanish uchun muhim institutsional omil hisoblanadi.





## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy rivojlanish jarayonida raqobat va hamkorlik omillarining o'zaro nisbatini aniqlash nazariy jihatdan ham, amaliy siyosat nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Ushbu bo'limda iqtisodiy samaradorlik, innovatsion faollik va institutsional barqarorlik mezonlari asosida raqobat hamda hamkorlik modellari qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil konseptual-analitik yondashuvga tayangan holda uchta jadval asosida tizimlashtirilgan.

Bozor mexanizmining klassik talqiniga ko'ra, raqobat resurslarni optimal taqsimlash va narx mexanizmi orqali bozor muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi. Raqobat sharoitida korxonalar xarajatlarni minimallashtirish va mahsulot sifatini oshirishga intiladi. Natijada qisqa muddatli samaradorlik ortadi.

Biroq zamonaviy iqtisodiy tizimlarda qiymat yaratish jarayoni ko'p bosqichli va tarmoqli xarakterga ega bo'lib, unda subyektlar o'rtasidagi hamkorlik muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, yuqori texnologiyali sohalarda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D) ko'pincha bir nechta tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi. Bu esa innovatsion natijadorlikni oshiradi va uzoq muddatli ustunlikni shakllantiradi.

1-jadval. Raqobat va hamkorlikning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'siri

| Ko'rsatkichlar           | Raqobat modeli                    | Hamkorlik modeli                          |
|--------------------------|-----------------------------------|-------------------------------------------|
| Xarajatlarni kamaytirish | Yuqori (bosim orqali)             | O'rta (resurs integratsiyasi orqali)      |
| Innovatsion faoliyat     | Individual tashabbusga asoslangan | Kollektiv bilim va sinergiyaga asoslangan |
| Transaksion xarajatlar   | Nisbatan yuqori                   | Institutsional ishonch hisobiga past      |
| Bozor barqarorligi       | Qisqa muddatli muvozanat          | Uzoq muddatli barqarorlik                 |
| Qo'shilgan qiymat        | Cheklangan segment darajasida     | Tarmoqli va klaster darajasida            |

Jadvaldan ko'rinadiki, raqobat xarajatlarni qisqartirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qilsa-da, hamkorlik modeli kengroq miqyosda sinergetik natija beradi. Ayniqsa, klasterlashuv jarayonlarida ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi va ilmiy muassasalar o'rtasidagi yaqin aloqalar yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga olib keladi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida bilim asosiy ishlab chiqarish omiliga aylanadi. Raqobat muhitida firmalar texnologik ustunlikni saqlash maqsadida ma'lumotlarni yopiq saqlashga intiladi. Bu esa bilim diffuziyasini sekinlashtirishi mumkin.

Hamkorlikka asoslangan modelda esa ochiq innovatsiya tamoyillari ustuvor bo'ladi. Universitetlar, startaplar va sanoat korxonalari o'rtasidagi kooperatsiya yangi texnologiyalarni tezroq joriy etish imkonini beradi. Natijada innovatsion ekotizim shakllanadi.

2-jadval. Innovatsion rivojlanish omillarining qiyosiy tahlili

| Mezoni                  | Raqobatga asoslangan tizim  | Hamkorlikka asoslangan tizim |
|-------------------------|-----------------------------|------------------------------|
| Bilim almashinuvi       | Cheklangan                  | Faol va tizimli              |
| R&D xarajatlari         | Individual moliyalashtirish | Qo'shma investitsiyalar      |
| Texnologiya transferi   | Sekin                       | Tezkor                       |
| Risklarni taqsimlash    | Individual                  | Kollektiv                    |
| Innovatsion barqarorlik | O'rta                       | Yuqori                       |

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hamkorlik modeli innovatsion risklarni taqsimlash va xarajatlarni birgalikda moliyalashtirish orqali barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yuqori noaniqlik sharoitida kooperatsiya iqtisodiy xavflarni kamaytirishga yordam beradi.



Raqobat modeli ko'pincha individual manfaatlar ustuvorligiga asoslanadi. Bunday sharoitda qisqa muddatli foyda ustuvor bo'lishi mumkin. Natijada bozorning barqarorligi yoki resurslarning haddan tashqari konsentratsiyasi bilan bog'liq xavflar yuzaga kelishi mumkin.

Hamkorlik esa ishonch, ijtimoiy kapital va barqaror institutlarga tayanadi. Agar institutsional muhit mustahkam bo'lsa, subyektlar o'rtasida uzoq muddatli sheriklik munosabatlari shakllanadi. Bu esa iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan barqarorligini ta'minlaydi.

### 3-jadval. Institutsional omillarning rivojlanishga ta'siri

| Omillar                   | Raqobat modeli         | Hamkorlik modeli         |
|---------------------------|------------------------|--------------------------|
| Ishonch darajasi          | Past yoki o'rta        | Yuqori                   |
| Ijtimoiy kapital          | Cheklangan             | Kengayuvchi              |
| Bozor konsentratsiyasi    | Ortish ehtimoli mavjud | Muvozanatli integratsiya |
| Uzoq muddatli barqarorlik | Nisbatan zaif          | Mustahkam                |
| Inklyuzivlik              | Cheklangan             | Keng qamrovli            |

Mazkur jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, hamkorlikka asoslangan model ijtimoiy kapitalni oshirish orqali inklyuziv o'sishni ta'minlaydi. Iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi o'zaro ishonch darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, transaktsion xarajatlar shunchalik kamayadi va iqtisodiy samaradorlik oshadi.

O'tkazilgan tizimli tahlil quyidagi ilmiy natijalarni ko'rsatdi:

1. Raqobat qisqa muddatli samaradorlikni oshiradi va narx mexanizmi orqali muvozanatni ta'minlaydi.
2. Hamkorlik uzoq muddatli barqaror o'sish va innovatsion rivojlanish uchun zarur institutsional asos yaratadi.

3. Klasterlashuv va davlat-xususiy sheriklik modeli iqtisodiy sinergiyani kuchaytiradi.

4. Bilim almashinuvi va kollektiv investitsiyalar innovatsion ustunlikni shakllantiradi.

5. Ijtimoiy kapital va ishonch darajasi yuqori bo'lgan tizimlarda iqtisodiy barqarorlik mustahkamroq bo'ladi.

Shunday qilib, zamonaviy iqtisodiy rivojlanish modeli antagonistik raqobatga emas, balki raqobat va hamkorlik uyg'unligiga asoslanishi maqsadga muvofiqdir. Raqobat samaradorlikni rag'batlantiruvchi mexanizm bo'lib qolsa-da, barqaror va inklyuziv o'sish hamkorlik institutlarining rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Yuqoridagi jadval va tahlillar mikroiqtisodiy darajadagi farqlarni ko'rsatadi. Biroq zamonaviy iqtisodiyotda rivojlanish jarayonlari ko'proq makroiqtisodiy muvozanat, tarmoqlararo integratsiya va institutsional barqarorlik bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, raqobat va hamkorlikning yalpi ichki mahsulot o'sishi, bandlik darajasi hamda investitsion jozibadorlikka ta'siri ham muhim hisoblanadi.

Raqobat muhiti kuchli bo'lgan iqtisodiyotlarda qisqa muddatli samaradorlik, ishlab chiqarish hajmining ortishi va narx barqarorligi kuzatiladi. Bu ayniqsa sanoat va xizmatlar sohasida ishlab chiqarish tannarxining pasayishiga yordam beradi. Ammo haddan tashqari agressiv raqobat sharoitida bozor konsentratsiyasi oshib, kichik subyektlar faoliyati cheklanishi mumkin. Natijada iqtisodiy tizimda nomutanosiblik yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

Hamkorlik modeli esa iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Klasterlashuv, hududiy kooperatsiya va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari ishlab chiqarish zanjirlarini mustahkamlaydi. Bu jarayon ayniqsa yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishda sezilarli natija beradi. Innovatsion tarmoqlarda birgalikdagi ilmiy-tadqiqot loyihalari eksport salohiyatini oshiradi va iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytiradi.

Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy talqinida inklyuzivlik muhim mezon hisoblanadi. Raqobat modeli samaradorlikni oshirsa-da, daromadlar tafovutining kengayishiga olib kelishi mumkin. Yirik kapitalga ega subyektlar ustunlikka ega bo'lib, kichik biznes imkoniyatlari cheklanadi.

Hamkorlikka asoslangan modelda esa kooperativ aloqalar, kichik va o'rta biznesni klaster tizimiga jalb etish, hududiy hamkorlik dasturlari inklyuziv o'sishni ta'minlaydi. Natijada iqtisodiy o'sish nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham barqaror bo'ladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, raqobat va hamkorlik o'rtasidagi muvozanat institutsional muhitga bog'liq. Agar huquqiy baza, mulk huquqi himoyasi va shartnoma majburiyatlari mustahkam bo'lsa, hamkorlik mexanizmlari samarali ishlaydi. Aks holda, ishonch darajasi past bo'lgan tizimda kooperatsiya cheklangan bo'ladi.

Zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari:

- Klaster siyosatini rivojlantirish va hududiy integratsiyani kuchaytirish;



- Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish;
- Innovatsion infratuzilmani qo'llab-quvvatlash;
- Transaksion xarajatlarni kamaytiruvchi raqamli platformalarni joriy etish;
- Ijtimoiy kapitalni mustahkamlovchi institutlarni rivojlantirish.

O'tkazilgan keng qamrovli tahlil quyidagi ilmiy xulosalarni asoslash imkonini berdi:

1. Raqobat iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi zarur shart bo'lib qoladi, biroq u yetarli omil emas.
2. Hamkorlik mexanizmlari innovatsion rivojlanish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi.
3. Raqobat va hamkorlik uyg'unligi iqtisodiy tizimning adaptivligini oshiradi.
4. Institutsional barqarorlik hamkorlik samaradorligining asosiy omilidir.
5. Inklyuziv rivojlanish hamkorlik institutlarining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq.

Shunday qilib, iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy modeli antagonistik raqobatga emas, balki strategik hamkorlik bilan uyg'unlashgan raqobatga asoslanishi lozim. Bu yondashuv iqtisodiy o'sishning barqaror, innovatsion va inklyuziv xususiyatini ta'minlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy va konseptual tahlillar shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy rivojlanish jarayonida raqobat va hamkorlik o'zaro inkor etuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi mexanizmlar hisoblanadi. Klassik iqtisodiy nazariyalarda raqobat resurslardan samarali foydalanish va bozor muvozanatini ta'minlovchi asosiy omil sifatida talqin etilgan bo'lsa, zamonaviy iqtisodiy tizimlarda barqaror va inklyuziv o'sishni ta'minlashda hamkorlik institutlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlil natijalari quyidagi ilmiy xulosalarni asoslash imkonini berdi:

1. Raqobat qisqa muddatli iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, xarajatlarni minimallashtiradi va mahsulot sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi.
2. Hamkorlik mexanizmlari innovatsion rivojlanish, risklarni taqsimlash va transaksion xarajatlarni kamaytirish orqali uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi.
3. Klasterlashuv, tarmoqlararo integratsiya va davlat-xususiy sheriklik modeli iqtisodiy sinergiyani kuchaytirib, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkonini beradi.
4. Ijtimoiy kapital va institutsional ishonch darajasi yuqori bo'lgan iqtisodiyotlarda hamkorlik samaradorligi ortadi va inklyuziv rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Demak, zamonaviy rivojlanish paradigmasi antagonistik raqobat modelidan strategik hamkorlik bilan uyg'unlashgan raqobat modeliga o'tishni talab etadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Klaster siyosatini chuqurlashtirish. Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish orqali ishlab chiqaruvchi, ilmiy muassasa va moliyaviy institutlar o'rtasida barqaror hamkorlikni shakllantirish zarur.
2. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish. Infratuzilma, innovatsiya va ijtimoiy loyihalarda resurslarni birlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.
3. Innovatsion ekotizimni rivojlantirish. Universitet-sanoat-startap integratsiyasini kuchaytirish orqali bilim almashinuvi va texnologiya transferini jadallashtirish lozim.
4. Raqamli platformalarni joriy etish. Elektron savdo va raqamli boshqaruv tizimlari transaksion xarajatlarni kamaytirib, hamkorlik samaradorligini oshiradi.
5. Institutsional ishonchni mustahkamlash. Huquqiy baza barqarorligini ta'minlash, shartnoma intizomini kuchaytirish va korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni rivojlantirish hamkorlikning institutsional asosini mustahkamlaydi.
6. Kichik va o'rta biznesni kooperatsiyaga jalb etish. Ularni klaster va ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiya qilish inklyuziv o'sishni ta'minlaydi.

Yuqoridagi tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi iqtisodiy tizimning barqarorligini mustahkamlash, innovatsion salohiyatni oshirish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Smith, Adam. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.
2. Ricardo, David. *On the Principles of Political Economy and Taxation*. London: John Murray, 1817.
3. Porter, Michael E. *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press, 1990.
4. North, Douglass C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
5. Ostrom, Elinor. *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action*. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
6. Brandenburger, Adam M., and Barry J. Nalebuff. *Co-opetition*. New York: Currency Doubleday, 1996.



7. United Nations. *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: United Nations, 2015.
8. Isomukhamedov, A., Kholmiraev, U., Tursunov, U., Ergashev, I., Aliyeva, G., Karimova, S., & Nadirov, U. (2025). *Using AI Enterprise Expenses Prediction and Budgeting Mechanisms. Reliability: Theory & Applications*, 20(SI 10(88)), 365–371.
9. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). *Moliyaviy hisobotlarning qayta ko'rib chiqilishida xalqaro talablarga rioya etilishi zarurligi. Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 424–432.
10. Xolmirzaev, U. A. (2023). *Debitor qarzlari aylanishini tahlil qilish va takomillashtirish masalalari*.
11. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmiraev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). *Theory of Economic Analysis*. Tashkent: Economics-Finance, 2013.
12. Xolmirzaev, U. B. (2023). *Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishi evolyutsiyasini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar. Green Economy and Development*, 1(10), 664440.
13. Xolmirzaev, U. B. (2023). *Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari. Green Economy and Development*, 1(11), 664441.
14. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). *Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minotini kuchaytirish zarurligi va omillari tahlili. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(03), 142–146.





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 3**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>